



**JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI SAROY MFYDA 220 O'RINLI 30-SON  
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI FILIALINI QAYTA TA'MIRLASH  
SUBLOYIHASI UCHUN**

**Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi  
(AMIBR)**

**JB va OIIB tomonidan moliyalashtirilgan  
"QISHLOQ INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH" LOYIHASI**

**Oxirgi yangilangan: avgust, 2021 yil  
Jizzax**

## MUNDARIJA

MUNDARIJA .....	2
QISQARTMALAR VA LUG'AT .....	3
EKOLOGIK SKRINING VA TASNIFI .....	4
Subloyiha .....	4
Subloyihaning manzili .....	4
Loyiha toifasi .....	4
Jamoatchilik muhokamalari .....	4
EKOLOGIK O'RGANISH VA EKOLOGIK BOSHQARUV REJASI .....	5
1. Kirish.....	5
1.1. Loyiha haqida qisqacha ma'lumot .....	5
1.2. Institutsional model.....	5
1.3. Qonunchilik va Nizomlar .....	7
2. Subloyiha tavsifi .....	8
3. Potensial ta'sirlar .....	9
3.1. Qurilish bosqichi .....	9
3.1.2. Ijtimoiy Ta'sirlar.....	13
3.1.3 Yer uchastkasini olish va ko'chirish ta'siri.....	13
3.1.4. Ekologik ta'sirlar.....	15
4. QURILISH PAYTIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY TA'SIRLAR VA ZARUR YUMSHATUVCHI CHORA-TADBIRLAR .....	16
5. Ekologik va ijtimoiy ta'sirni yumshatish rejasi.....	19
6. MONITORING REJASI.....	28
7. SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI (SHKCHM).....	32
ILOVALAR .....	35
Ilova-1. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi xulosasi.....	35
Ilova- 2. Baxmal tumani hokimi qarori.....	37
Ilova-3. Daraxtlarni kesilishi yuzasidan viloyat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining xati.....	38
Ilova-4. Sobiq maktab direktori nomidan o'g'lining tushuntirish xati .....	39
Ilova-5. Maktab hududidagi daraxtlarni kesish bo'yicha MFY bayonnomasi.....	40
Ilova-6. Ko'chirish va ijtimoiy skrining .....	43
Ilova-7. Maktab chegaralari (yangi qo'shilgan yer) fotosuratlari .....	44
Ilova-8. Eski maktab chegaralarining fotosuratlari .....	46
Ilova-9. Kesiladigan daraxtlar (teraklar).....	47
Ilova-10. Maktab yaqinidagi xonadonlar vakillaridan kafolat xati .....	48
Ilova-11. Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasini jamoatchilik muhokamasi .....	49

## QISQARTMALAR VA LUG'AT

AMIBM	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv modeli
AMIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
AMIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasi
AMM	Atrof-muhit muhofazasi
AMTBL	Atrof-Muhit Ta'siri Bayonnomasi Loyihasi
AQNB	Arxitektura va qurilish nazorati bo'limi
AQSh dollari	AQSH Dollar
ATB	Axborot boshqaruvi tizimi
AS	Amaliy siyosat
AOTX	Amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatish
AMB	Atrof-muhitni baholash
DEE	Davlat ekologik ekspertizasi
EIM	Ekologik va ijtimoiy muhofaza
IKB	Ish ko'lami bayonnomasi
JB	Jahon Banki
JMG	Jamoatchilik monitoringi guruhi
KHR	Ko'chirish harakat rejasi
KRAM	Ko'chirish rejasining asosiy modeli
LAOG	Loyihani amalga oshirish guruhi
LAOQ	Loyihani amalga oshirish qo'llanmasi
LT	Loyihalash tashkiloti
LZKSh	Loyihadan zarar ko'rgan shaxslar
MFY	Mahalla fuqarolar yig'ini
MM	Muhofaza mutaxassisi
OIIB	Osiyo Infratuzilmaviy Investitsiya Banki
O'zH	O'zbekiston hukumati
QAM	Qayta aloqa mexanizmi
QF	Qishloq Fasilitatori
QM	Qishloq Muhandisi
QMQ	Qurilish me'yoriy qoidalari
QT	Qurilish tashkilotlari
QIRL	Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi
ShKChM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
ShQ	Shaharsozlik qoidalari
SL	Subloyiha
TAMMBR	Tarkibida azbestos mavjud material boshqaruv rejasi
TIA	Texnik-iqtisodiy asoslash
TLQ	Tuman loyiha qo'mitasi

## **EKOLOGIK SKRINING VA TASNIFI**

### **Subloyiha**

Subloyiha 30-sonli o'rta maktab filiali binosini 220 o'rinli yangi zamonaviy maktab sifatida rekonstruksiya qilishni nazarda tutadi. Subloyiha aholi tomonidan Qishloq fasilitatorlari va Qishloq muhandisi (QF&QM) yordamida tanlanlangan.

### **Subloyihaning manzili**

Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi "Saroy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY) da joriy subloyiha amalga oshirilmoqda. Baxmal tumani hokimining 30-sonli maktab filiali hududida qo'shimcha yer uchastkasi ajratish to'g'risida qarori mavjud (2-ilova). Maktabning umumiy maydoni 1.02 gektar (10,200 m<sup>2</sup>) ni tashkil etadi.

Saroy MFY Baxmal tuman markazidan 25-30 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, 464ta uy xo'jaliklari mavjud. Umumiy aholisi 2789 kishini (1391 ayollar, 1398 erkaklar) tashkil etadi.

Ushbu mahallada 465 nafar maktab yoshidagi bolalar mavjud, ulardan 177 nafari boshlang'ich sinf o'quvchilaridir.

Maktab binosi shimol, janub va sharqdan aholi turar joylari, g'arbdan Sangzor daryosi bilan chegaralangan. Ushbu obyektning rekonstruksiya mo'ljallanayotgan hududda hech qanday sanoat/ishlab chiqarish obyekti yo'q. Belgilangan hududda moddiy yoki tarixiy yodgorliklar ham mavjud emas.

Aholining eng yaqin turar joylari ob'ektning qozonxonasi binosidan janubi - sharqiy yo'nalishda 20 metr masofada joylashgan.

### **Loyiha toifasi**

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-sentyabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" 541-sonli qaroriga asosan subloyiha 4 toifaga mansub va Atrof-muhitga ta'sirini baholash loyihasi ishlab chiqilishi va uni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tegishli davlat ekologiya boshqarmasiga taqdim qilinadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda AMTBL ishlab chiqildi va atrof-muhitga ta'sirni baholashning ijobiy xulosasiga ega (1-ilova).

JBning 4.01 amaliy siyosatiga (AS) muvofiq, "Ekologik baholashga " ko'ra subloyiha "B" (kichik xavf) toifasiga tegishli. JB standartlarga rioya qilish maqsadida LAOG va JB tomonidan tasdiqlangan AMIBR tayyor bo'lishi kerak.

### **Jamoatchilik muhokamalari**

AMIBR loyihasi tasdiqlangandan so'ng, uni oshkor qilish maqsadida mahalliy aholi bilan jamoatchilik muhokamasi o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamalar mahalliy aholi va manfaatdor tomonlar bilan bo'lib o'tadi. Jamoatchilik maslahatlashuvlarda ko'tarilgan savol va tegishli ta'sirlar AMIBR hujjatlarida o'z aksini topadi. Yakuniy AMIBRning varianti, shu jumladan, jamoatchilik muhokama/maslahatlashuvlarining bayonnomasi QIRL LAOG tomonidan qo'shib, qaytada jamoatchilik e'tiboriga havola etiladi. AMIBR tender hujjatlariga va ish beruvchining, pudratchi, shartnomalariga Buyurtmachining AMIBRi sifatida ilova qilinadi. Ushbu AMIBRga asosan pudratchi o'z ishchilari uchun AMIBR ishlab chiqadi.

# EKOLOGIK O'RGANISH VA EKOLOGIK BOSHQARUV REJASI

## 1. Kirish

### 1.1. Loyiha haqida qisqacha ma'lumot

"Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi (keyingi matnlarda - QIRL) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan O'zbekistonning 5 ta viloyatlari (Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari) da asosiy infratuzilmaning sifatini oshirish va qishloqlarda mahalliy boshqaruv jarayonlarini mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi. QIRL Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) va Osiyo infratuzilmaviy investitsiya banki (OIIB) tomonidan asosiy va ijtimoiy qishloq infratuzilmasini yaxshilash uchun moliyalashtiriladi.

QIRLning asosiy maqsadi qishloq infratuzilmasi sifatini yaxshilash va qishloq aholisining asosiy va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan foydalanish talabini investitsiyalash orqali tanlangan qishloqlarda keng ishtirok etish asosida mahalliy boshqaruv jarayonlarini mustahkamlashdan iborat.

Loyiha doirasida asosiy va iqlim o'zgarishiga bardoshli infratuzilma va xizmatlarning subloiyahalariga kiritilgan maqbul investitsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo bular bilan cheklanmaydi: (i) qishloq ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlariga innovatsion alternativ modellar kiritish orqali ulardan foydalanishni kengaytirish uchun mavjud ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini tiklash; (ii) energiya samaradorligini oshirish uchun jamoat binolarini modernizatsiyalash; (iii) ijtimoiy infratuzilmani tiklash; (iv) uchinchi darajali yo'llar, ko'chalarni va piyodalar uchun yo'llarni tiklash; (v) yo'llarni drenajlash(quritish) va qishloq yo'llarining toshqinga chidamliligini oshirish; (vi) ko'priklarni tiklash va qurish (uzunligi 10 metrgacha); (vii) ko'chalarni yoritish tizimini modernizatsiyalash; (viii) jamoat joylarini takomillashtirish; (ix) qattiq chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimlari; (x) jamoat ob'ektlarini kichik miqyosda qurish; (xi) simsiz Internet xizmatlari bilan ta'minlash uchun antennalarni o'rnatish; (xii) avtobus turargohlari va bekatlarini qurish va tiklash; hamda (xiii) energiya ta'minoti bo'yicha chora-tadbirlar.

### 1.2. Institutsional model

QIRLni moliyalashtirish kelishuvida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining loyihani amalga oshirish guruhi (LAOG) loyiha maqsadlariga erishish uchun umumiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

LAOG shuningdek, loyihaning rivojlanish maqsadlariga erishish uchun QIRL faoliyatini amalga oshirishda barcha tegishli Jahon bankining amaliy siyosati (4.01, 4.12) ko'rsatma va tartiblariga rioya qilishni ta'minlaydi va O'zbekiston Respublikasi hukumati zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni bajarish uchun javobgardir.

LAOGda loyiha rahbari, rahbar o'rinbosari, xaridlar bo'yicha mutaxassis, moliyaviy boshqaruv bo'yicha mutaxassis, infratuzilma bo'yicha katta mutaxassis, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis, ijtimoiy himoya bo'yicha mutaxassis, jamoa safarbarligi bo'yicha mutaxassis, Axborot boshqaruvi tizimi (ABT) mutaxassisi, va MvB mutaxassislari mavjud.

**LAOG hududlararo Jizzax ofisi** - Jizzax va Sirdaryo viloyatida QIRL ijrosini tashkil etib, qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, hududiy atrof-muhit va ijtimoiy himoya bo'yicha mutaxassislar va texnik nazorat nozirlari AMIBRni amalga oshirilishini nazorat qilib, Markaziy LAOGga bu bo'yicha oylik hisobot tayyorlaydilar.

**Jizzax viloyat hokimligi** - Viloyat hokimliklari viloyat darajada QIRL ning bajarilishini boshqarish va nazorat qilish uchun javobgardir. Bunga YaBXIK quyida tavsiflangan QIRLga xizmat ko'rsatilishini ta'minlashi va viloyat hokimiyatining tarkibiy bo'linmalarini tashkiliy masalalar va amalga oshirish muammolarini hal qilishda texnik yordam ko'rsatish uchun boshqarish kiradi.

**Baxmal tumani hokimligi** - tuman miqyosida QIRL ning bajarilishini boshqarish va nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi. Har bir ishtirokchi tumanning tuman hokimi QIRL ni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun Tuman Loyiha Qo'mitasi (TLQ) ni tashkil etadi. TLQ tuman boshqaruv idoralari va kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning asosiy a'zolaridan iborat bo'ladi va unga tuman hokimi raislik qiladi. TLQ quyidagilarga javobgardir: (i) QIRL ning maqsadlari va qoidalarini, shu jumladan, qishloqlarni tanlash mezonlari, muvofiq investitsiyalar, qatnashish uchun jarayonlar va amalga oshirish muddatlarini MFY larga yetkazish; (ii) QIRL da ko'rsatilgan choralar va tanlov mezonlari asosida QIRL da qatnashish uchun qishloqlarni tanlash; (iii) Qishloq Taraqqiyoti Rejasi (QTR)da QIRL tomonidan moliyalashtirish uchun taklif qilingan subloyihalarni ko'rib chiqish uchun MTG lar bilan ishlash. Bunda ko'rib chiqish ekspluatatsiya va texnik xizmat (ETX) ko'rsatish rejalarini tasdiqlash uchun va ushbu subloyihalar boshqa davlat dasturlarida rejalashtirilgan investitsiyalarni takrorlamasligi maqsadida amalga oshiriladi; (iv) tanlab olingan subloyihalar ro'yxatini subloyihalarni loyihalashtirish uchun viloyat hokimiyatiga YaBXIK uchun taqdim etish; va (v) viloyat hokimiyatlari bilan birgalikda, kundalik ETX uchun tegishli tarmoq bo'limlariga QIRL tomonidan moliyalashtirilgan infratuzilmani topshirishga ko'maklashish

**"Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi** - YaBXIK Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 sentyabrdagi 395-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan. YaBXIK yagona xizmat ko'rsatuvchi organ bo'lib viloyat hokimiyatlariga xaridlar qiladi, boshqaruv va texnik xizmatlarni ko'rsatadi. YaBXIK lar odatda 40-55 kishidan iborat bo'lib, ular orasida direktor, bosh muhandis, iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, tender bo'limi, loyihani amalga oshirish va texnik nazorat bo'limi, moliyaviy va shartnomalarni boshqarish bo'limi, buxgalteriya bo'limi va boshqa bo'limlar mavjud..

**Saroy Mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)** - Ijroiya Qo'mitalari rais, kotib va maslahatchilardan iborat bo'ladi. Loyiha maqsadlari uchun MFY Ijroiya Qo'mitalari quyidagilarga javobgardirlar: (i) qishloqning rivojlanish jarayonidagi ehtiyojlarini tashqi manfaatdor tomonlarga, shu jumladan O'RH amaldorlari, idoralari va taraqqiyot bo'yicha faoliyat yurituvchi tashkilotlarga taqdim etish; (ii) TLQ larga QIRL ning yutuqlari to'g'risida hisobot berish; (iii) qishloq a'zolariga QIRL to'g'risida tushuncha olishga yordam beradigan aloqa tadbirlariga ko'maklashish; va (iv) QF va QM larni barcha mahallalar va jamoatchilik guruh vakillari, shu jumladan ayollar, yoshlar va himoyaga muhtoj guruh vakillari ishtirok etadigan uchrashuvlarni tashkil etishda qo'llab-quvvatlash.

Vaqtinchalik mahalla taraqqiyot guruhi (V-MTG) - QIRL ning umumiy tadbiriq etilishida MFY Ijroiya Qo'mitalarini qo'llab-quvvatlash uchun, QIRL da ishtirok etish uchun tanlangan har bir qishloq MTG ni tashkil qiladi. Bu QIRL maqsadlari uchun tashkil etilgan vakillik organi bo'lib, u MFY lar va jamoatchilik a'zolari bilan ishlaydi. MTG quyidagilarga javob beradi: (i) QIRL maqsadlari, moliyalashtirishga loyiq bo'lgan subloyihalar, jamoaviy loyiha sikllari va shikoyatlarni ko'rib chiqishni jamoatchilikka yetkazish ishlarini olib borish; (ii) jamoaviy ehtiyojlarni baholashni qo'llab-quvvatlash va ushbu baholashda ayollar, yoshlar, nogironlar va himoyaga muhtoj guruhlarning yetarli darajada ishtirok etishini ta'minlash; (iii) QF va QM yordamida jamoatchilikning muhokamasiga va ma'qullashi asosida QTR tayyorlash; (iv) QM lar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan texnik-iqtisodiy tahlili asosida, QIRLni moliyalashtirish uchun ustuvor bo'lgan subloyihaviy investitsiyalar bo'yicha dastlabki takliflarni ishlab chiqish; (v) QTR ni muhokama qilish uchun TLQ lar bilan o'zaro hamkorlik qilish va QIRL subloyihalari uchun ETX rejalarini ishlab chiqish; (v) Jamoatchilik ishtirokidagi Monitoring jarayonini qo'llab-quvvatlash; va (vi) QIRL bilan bog'liq shikoyatlarni ShKChM ga taqdim etish.

Vaqtinchalik mahalla taraqqiyot guruhi - KOVID-19 vaziyatida Vaqtinchalik Mahalla Taraqqiyot Guruhiga (V-MTG) ko'p aholini talab etadigan saylovlar, yig'inlar va ishtirok etish mashqlarni bajarishni

to'xtatish taklif etilgan. Buning o'rniga, jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar kichik yig'ilishlarda va/yoki QIRL resurslarni ajratish va subloyihaning bajarilishini nazorat qilish uchun jamoatchilik vakillari (masalan, yoshlarni ham o'z ichiga oladigan vaqtinchalik V-MTGlar) orqali amalga oshiriladi.

**Jamoatchilik monitoringi guruhlari (JMG)** - MFY yoki V-MTGdan mustaqil faoliyat yuritib, aholi darajasidagi jarayonlarni olib boradilar va QIRL da ishtirok etadigan turli ishtirokchilar pastdan yuqoriga hisobdor bo'lishini ta'minlaydilar. Bu orqali benefitsiarlar loyiha sifatini va davlat mablag'larini taqsimlash uchun mahalliy saylangan kengashlarni hisobdorligini, Qishloq taraqqiyot rejalarini shaffof va hisobdor vositalar yordamida boshqarish, shuningdek, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik choralariga rioya qilish jarayonlarida ishtirok etadilar va nazorat qiladilar.

#### **Jamoatchilik monitoringi guruhlarining maqsadi**

- subloyihalar sifatini oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirish;
- Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik choralariga rioya etilishini ta'minlash;
- MFY, V-MTG, aholi va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida shaffoflik va hisobdorlikni yaxshilash;
- Tuzatish harakatlarini amalga oshirish uchun teskari aloqa mexanizmini yaratish;
- Jamoalarning salohiyati va subloyihalarni monitoring qilish ko'nikmalarini oshirish.

**Pudratchi**-qurilish ishlarini boshidan oxirigacha amalga oshiruvchi tashkilot. Tashkilot O'zbekiston Respublikasining barcha normativ talablariga muvofiq faoliyat olib boradi va AMIBR hujjatida belgilangan talab va chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlaydi.

**ATLANT ARCHITECTS GROUP MCHJ** – subloyiha dizayni bn birga, dastlabki AMIBR ishlab chiqib LAOGga taqdim etadi. AMIBR jamoatchilik muhokamasiga qo'yilganda tushuntirish ishlarida asosiy rolni amalga oshirishi kerak.

### **1.3. Qonunchilik va Nizomlar**

Loyiha, shuningdek, milliy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan "Ekologik ekspertiza to'g'risida" gi qonun hamda Atrof muhitni baholash (2018) bo'yicha O'zRH qaroriga talablariga mos keladi. Jahon banki va O'zbekiston atrof muhit va ijtimoiy normativ-huquqiy bazani taqqoslash natijalari asosiy farqlar turkumlashtirish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi, ushbu subloyiha tabiatga ta'siri bo'yicha Jahon Bankida 'b' toifaga va O'zRes Qonunchiligiga asosan esa "4"-toifaga mansub, alohida AMIBR ishlab chiqish uchun talablar mavjud (O'zbekiston AMB jarayonida bunday talablar yo'q), jamoatchilik fikri va axborotlarni oshkoraligi (milliy Qonunchilik faqat I va II toifalari yuqori xavf bilan loyihalar uchun belgilaydi). Shunga ko'ra, AMIMCHBAM bu hollarda mijoz JB AS talablarini qo'llashini nazarda tutadi.

QIRL JBning 4.01 AS ga asosan "Ekologik baholash " ni boshlaydi, chunki bu jarayon bir qator salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. 4.12 AS "Majburiy ko'chirish to'g'risida".

Milliy Qonunchilik:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55, 93, 100 moddalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55 - moddasida: yer, uning yer osti boyliklari, suv, flora va fauna va boshqa tabiiy resurslar milliy boyliklar bo'lib, davlat tomonidan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga;
2. 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun (18.04.2018 da yangilangan) atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi, barqaror rivojlanishni va muayyan tamoyillarni, shu jumladan, Davlat ekologik ekspertizasini ta'minlaydi (DEE). "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonunning 12-moddasida: O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga va ekologik talablarga rioya qilishga majburdirlar. Qonunda qayd etilganidek, iqlimni global o'zgarishlardan

himoya qilish uchun tadbirkorlik sub'ekti issiqxona gazlari chiqindilari bilan bog'liq cheklovlarga rioya qilishi, shuningdek, ushbu emissiyalarni yumshatish choralarini ko'rishi lozim.

3. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun 6 may 1993 (2018 yil 23 iyulda yangilangan) suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish, salbiy ta'sirlar va milliy qonunchilikka rioya qilishning oldini olish va kamaytirish imkonini beradi; qonun barcha tabiiy va huquqiy shaxslarning suv omborlari, qor va muz qoplami, muzliklar, doimiy qor qoplami sanoat, ichki va boshqa chiqindilar va chiqindilarning oldini olish va chiqindilarning oldini olish uchun javobgarligini ta'minlaydi.

4. 1997-yil 26-dekabrda "O'simliklarni himoya qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun (2016-yil 21-sentabrda yangilangan) tabiiy sharoitda o'sadigan o'simlik (o'simlik) larni hamda ularni tiklash va genetik saqlash uchun yetishtirilgan yovvoyi o'simliklarni himoya qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi;

5. 1996-yil 27-dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda (2017-yil 14-sentabrda yangilangan) atmosfera havosining tabiiy holatini saqlash masalalari belgilangan; davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish.

6. "Chiqindilar to'g'risida" gi qonuni 2002 yil (yangilangan 10.10.2018 yil) chiqindilarni boshqarishni tartibga soladi va atrof-muhitni tekshirish, muvofiqlashtirish, baholash va chiqindilarni yo'q qilish mumkin bo'lgan joylar uchun muayyan parametrlarni o'rnatish uchun Davlat ekologik qo'mitasiga vakolat beradi.

7. "Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qonun (2001 yil) (14.09.2018 da yangilangan) atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sirni majburiy tekshirishni nazarda tutadi, shuningdek, ekspertiza o'tkazish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi;

8. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun (2013) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ekologik nazoratning asosiy vazifalari ekologik qonun hujjatlarining buzilishini oldini olish, aniqlash va bostirish; atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan irratsional foydalanish, fuqarolar hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan ekologik vaziyat va omillar monitoringi.

9. "Milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida"gi qonun (1997), ekologik xavfsizlikga erishishning asosiy tuzilishini ta'minlaydi va hokazo.

10. "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida" gi qonun (2000) qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson salomatligi va atrof-muhitga zararli ta'sirini oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

11. Tabiatni muhofaza qilish, ish o'rinlarini tashkil etish, shu jumladan qurilish maydonchalarida me'yoriy hujjatlar.

## **2. Subloyiha tavsifi**

Jizzax viloyati Baxmal tumani Saroy MFYda jamoa safarbarligi jarayonida LAOG Qishloq fasilitatorlari va muhandislari tomonidan o'tkazilgan tahlillar quyidagilardan iborat:

- Manbalarning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili
- Farovonlik tahlili
- Mavsumiy taqvim (alohida jamoalarda)
- Salomatlik tahlili
- Ta'lim tahlili



Ushbu tahlillar samarali o'tkazilgandan so'ng dastlabki, qishloq taraqqiyot rejasida aholi ishtirokida tuzildi.

Qishloq taraqqiyot rejasida aholi tomonidan hududagi 30-umumiy o'rta-ta'lim maktab filialini qayta rekonstruksiya qilish subloyihasi taklifi tasdiqlandi.

Ushbu Saroy MFYda tanlangan subloyihani amalga oshirish uchun 30- umumiy o'rta ta'lim maktab filialining eski binosida hozirgi kunda 1.02 gektar yer maydoni ajratilgan va foydalanib kelinmoqda.

“Saroy” MFY hududidagi o'rta maktabidagi mavjud sharoitlar bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermasligi aniqlangan. O'rganishlar natijasida bu holat mazkur qishloqlarda yashovchi otalarning keskin e'tirozlariga sabab bo'layotganligi ma'lum bo'lgan.

### **Saroy MFY hududida joylashgan maktab va maktab filiali haqida umumiy ma'lumot:**

Markazdan uzoqligi- 18 km

Aholi soni-2789

shundan ayollar-1391

Xonadonlar soni-464

30- maktab filiali (sobiq MTM binosi) 1985 yilda qurilgan bo'lib, keyinchalik 120 o'quvchi o'rniga moslashtirib faoliyati tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu maktab va maktab filialida jami 484 nafar (shundan, maktabda 419 nafar, filialida 65 nafar) o'quvchilar ta'lim olmoqda.

Baxmal tumani hokimning 2021-yil 27-apreldagi 492-sonli qaroriga muvofiq 30-son maktab filialini qayta ta'mirlash uchun qo'shimcha yer uchastkasi ajratilgan.

### **3. Potensial ta'sirlar**

#### **3.1. Qurilish bosqichi**

Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Saroy MFY hududida 220 nafar o'quvchi uchun maktab qurilishi rejalashtirilgan ishlar ro'yxati.

Tanlangan ob'yekt umumiy maydoni 1,02 gektar (10,200<sup>m2</sup>) tashkil etadi.

Bosh reja qurilish hududning joyi va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Binolar, inshootlarning joylashishi va bosh plan o'lchamlari SHnK 2.07.01-03 “SHAHAR VA QISHLOQ AHOLI PUNKTLARI HUDUDLARINI RIVOJLANTIRISH VA QURISHNI REJALASHTIRISH», SHnK 2.08.02-96 «JAMOAT BINOLARI VA INSHOOTLARI”ga, «Zamonaviy maktab” Davlat dasturiga va SHnK 2.01.02-04 "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi" ga binoan qurilish uchun umumiy ta'lim maktabining loyihasini ishlab chiqish vazifalari belgilanadi.

Binoning asosiy fasadi janubi-g'arbga yo'naltirilgan.

Binolarni gorizontal bog'lash, qo'shimcha binolar, obodonlashtirish. Qurilish maydoniga kirish va chiqish.

Binoni bog'lash uchun "O'zqishloqenergoloyiha" MCHJ dizayn instituti va "ATLANT ARCHITECTS GROUP" MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan 9 ballik seysmik ta'sirga mos qilib ishlab chiqilgan № 224-1-01C.09 standart loyihasi qabul qilindi. Hududda 6 ta dush kabinasi, qozonxona, ko'mir ombori, ahlat yig'ish, transport, yong'in qalqoni, yong'inga qarshi nasos stansiyasi, sport maydonchasi, quduq, suv minorasi bo'ladi. Maktab maydonchalari maktabning old tomoni uchun metall panjara bilan o'ralgan.

Ob'yektni qurishda tayyor beton, qurilish ishlari uchun tayyor oxak, tayyor asfalt, tayyor qurilish bo'yoqlari, gips, sement, shag'al, oxak, payvandlash ishlarida payvandlash elektrodlari, yog'och materiallari va qo'shimcha qurilish materiallar ishlatiladi.

Qo'llaniladigan yuk ko'taruvchi va yopuvchi tuzilmalar mahsulot va materiallarining xususiyatlari.

Ushbu ob'ektni qayta ta'mirlash uchun asos: Baxmal tumani hokimining 27.04.2021dagi 492-sonli qarori va 18.05.2021 dagi Baxmal tumani Davlat xizmatlari markazining 31092390-sonli xati. Ushbu loyiha quyidagi ishlarni ko'zda tutadi:

Qurilish:

- Sport zali bilan 2 qavatli o'quv bloki;
- o'tish galereya -1, 2, 3;
- quduq - 25 m<sup>3</sup>;
- 100 boshiga m<sup>3</sup>;
- yong'inga qarshi suv saqlash handak 50 m<sup>3</sup>
- ko'mir saqlash omborhonasi;
- 8 kishilik hojathona
- qozonhona;
- quduqni burg'ulash.

O'rnatish:

- transformator podstansiyasi;
- suv minorasi - 15m<sup>3</sup> miqdor;
- yong'inga qarshi va qum qutisi;
- bog';
- chiqindilarni saqlash qutilar.

Qurilma:

- basketbol maydonchasi;
  - gimnastika mashg'ulotlari uchun maydonchalar.
- O'quvchilar soni - 220 nafar.



Rasm 2. Rejalashtirilgan maktabning Google Earth ilovasidan olingan rasmi



Rasm 3. Saroy MFY subloyihasining kadastr xaritasi



### 3.1.2. Ijtimoiy Ta'sirlar

Ko'chirish va ijtimoiy skrining

Skrining natijalari shuni ko'rsatadiki, yer olish talab qilinmaydi (6-ilova). Maktab yaqinida yashovchi aholining ushbu hudud ilgari maktabga tegishli bo'lganligi haqidagi kafolat xatlari olingan (10-ilova). Xech qanday xususiy mulkka ta'sir va doimiy jismoniy ko'chirish holatlari aniqlanmadi. Boshqa ehtimoliy ta'sirlar quyidagilar:

- Ijtimoiy masalalarning umumiy to'plami. Qurilish faoliyatining sezilarli ijtimoiy ta'siri ko'zda tutilmagan.
- Ko'chirish muammolari. Subloyiha xususiy yer sotib olishni nazarda tutmaydi va xususiy yoki ijaraga olingan qishloq xo'jaligi yerlari va xususiy aktivlar yoki korxonalariga doimiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shaxsning tirikchiligiga qurilish ishlari ta'sir qilmaydi.
- Qurilish mobaynida bo'sh ish o'rinlari yaratilishi imkoniyatlari bilan bog'liq ijobiy ta'sir. Qurilish vaqtida vaqtincha cheklangan va ish paytida cheklangan.
- Shovqin, atrof muhit ifloslanishi va tebranish bilan bog'liq sog'liq muammolari. Cheklangan va vaqtinchalik.
- Yo'l harakati buzilishi. Mahalliy transport harakatiga subloyiha bilan bog'liq transport faoliyati cheklangan va vaqtinchalik ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Xavfsizlik va kirish imkoniyati. Qurilish hududiga yaqin bo'lgan hududlarga kirish chegaralanishi va to'xtatilishi natijasida transport vositalari va piyodalar uchun potentsial xavflar bo'lmaydi. Ushbu subloyiha katta ijtimoiy xavflar kutilmaydi. Subloyiha ostida rejalashtirilgan tadbirlar ko'proq ijobiy ijtimoiy oqibatlariga olib keladi.

Strategiyaning ajralmas qismi loyihadan zarar ko'rgan jamoalar va shaxslarning fikrlaridan xabardor bo'lish va hisobga olishdir. Shunday qilib, ijtimoiy xavf-xatar/nizolarning oldini olishning asosiy vositalaridan biri Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bo'lib, u orqali ma'lumotlarni olish va tezkor ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

AMIBRda ko'rsatilgan chora-tadbirlarning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlashda hududiy atrof-muhit va ijtimoiy himoya mutaxassisleri umumiy nazoratga javobgar bo'ladilar.

### 3.1.3 Yer uchastkasini olish va ko'chirish ta'siri

Loyiha doirasida **rasmiy va norasmiy (yerlarni/ tuzilmalarni sotib olish natijasida) ta'sir qiladigan doimiy jismoniy ko'chirish yoki boshqa tegishli holatlariga olib keladigan hech qanday faoliyat moliyalashtirilmaydi.**

Loyiha 1.02 ga maydonda joylashgan bo'ladi (tanlangan subloyiha sifatida eski maktab maydoni maktabni qayta ta'mirlash ishlari - *yuqoridagi xaritalarga va 7-8-ilovadagi fotosuratlariga qarang.* Maydon eski maktabga tegishli bo'lib, maktabni qayta ta'mirlash uchun belgilangan.

Subloyihani amalga oshirish uchun ajratilgan hududda maktabning sobiq direktori va maktab xodimlari tomonidan 253 dan ortiq daraxtlar ekilgan. Subloyihaning qurilish hududida 92 dona daraxt (91 terak va 1 ta olma) kesilishi kutilmoqda. Daraxtlarni kesilishi yuzasidan Jizzax viloyati Ekologiya Bosh boshqarmasining hati va davlat organlaridan tegishli xulosa va ko'rsatmalar olingan (Ilova 3). Fuqarolar va maktab xodimlari ishtirokida jamoaviy uchrashuvlar o'tkazildi. Fuqaro Abdunabi Tuimazov va maktab xodimlari, shu jumladan Saroy MFY, daraxtlarni kesish uchun hech qanday e'tirozlari yuqli haqida o'larining dalolatnomasida takidlab o'tishgan (8-ilova). Maktab direktorining Yagona hizmatlar markaziga berilgan arizasiga ko'ra 122 terak kesilishi kerakligi ko'rsatilgan, biroq Jizzaxning Ekologiya bosh boshqarmasi faqat 91 terak va 1 olma daraxtlari qurilishga to'sqinlik qilayotganligi to'g'risida hulosa xati bergan.

Rasm 4. Maktab hududida kesiladigan daraxtlar qizil rangda belgilanadi



O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va udan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 5-bob, 45-modda, 5-bandiga muvofiq, yog 'och olish va mevalar yetishtirish uchun maxsus ekilgan, yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo 'lgan daraxtlar va butalarni (teraklar va boshqa tez o 'sadigan turlar, tutzorlar, mevali daraxtlar va butalar) kesish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi.

"Davlat o'rmon fondiga kiritilmagan yerlarga daraxt va butalarni ekish, saqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 43-son qarori bilan tasdiqlangan daraxt va butalarni kesish va ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi Nizomning 4-bobi (daraxt va butalarni kesish yoki daraxtlarni kesish davlat o'rmon fondiga kiritilmagan yerlarga sanitariya maqsadida) tut daraxt shoxlarini kesish davlat o'rmon fondi tomonidan ekologik qo'mita xulosani talab qilmaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlar LOAG tomonidan 28 iyun 2021 yilda o'tkazilgan kadastr ma'lumotlari, sayt tashriflari va mahalliy hokimiyat organlari, zarar ko'rgan shaxslar va jamoa a'zolari bilan maslahatlashuvlar asosida tasdiqlangan.

Boshqa hech qanday er yoki qayta turar-joy egalari ta'siri, rasmiy yoki norasmiy foydalanuvchilar loyiha bilan bog'liq. Har qanday tasodifiy zarar va ta'sirlar pudratchi tomonidan to'liq tiklanadi yoki qoplanadi.

Maktab filiali Jizzax viloyati Baxmal tumani Saroy MFYda joylashgan. 1985-yilda qurilgan. Kadastr hujjatiga ko'ra maktabning umumiy maydoni 0,44 gektarni tashkil etgan. Kadastr hujjatlarida maktab atrofidagi 0,602 gektar yer kiritilmagan va tuman zaxirasi yerlari hisoblangan maktab ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalanilgan. Mahalliy aholi maktabga tegishli yer uchastkalari qurmagan. Maydon Sharq-G'arb va Shimoliy-janubda chegaralanadi. Sangzor daryosi 300-500 metrdan sharqqa qarab oqadi. Yog'ingarchilik va suv toshqinlaridan ta'sirlanmaydi. Tuman markazidan 18-25 km uzoqlikda joylashgan. Maydon yaqinida elektr liniyasi mavjud. Maktab filialining kadastr hujjati Raqami 1321, 13:02: 09: 02: 01: 0317: 0001 o'zbekiston 2021-moddasiga muvofiq qarorlari tumani hokimining №473 I3.05.16, №492 27.04.2021 va er 1.02 gektar ajratildi.

Ichimlik suvi kerak bo'lganda tashiladi, oqar suvlar mavjud emas.

Isitish tizimi ko'mir bilan ishlaydigan pechlarda isitiladi.

Kanalizatsiya tizimiga ulanmagan, mavjud emas.

Avtomobil yo'lidan 500 metr masofada joylashgan.

Maktab filialida hozirgi kunda 69 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktabga Saroy, Xo'jamali va Bolki qishloqlaridan o'quvchilar keladi.

#### **3.1.4. Ekologik ta'sirlar**

Subloyiha atrof -muhitga bir qator ta'sir aniqlandi:

- chiqindi ishlab chiqarish
- havoning ifloslanishi
- shovqin ifloslanishi yuza suvning ifloslanishi.
- tuproqning ifloslanishi.
- azbest chang bilan ifloslanishi

Amalga oshirilayotgan ob'ektning ekologik xavfsizligi uchun atrof-muhitga ta'sirini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun barcha zarur chora-tadbirlar quyidagi jadvalda keltirilgan

LAOG atrof-muhit mutaxassisi mahalliy hokimliklar va Jizzax viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda qurilish bosqichida ham, foydalanishga topshirgan bosqichida ham ekologik chora-tadbirlarni kuzatib boradi.

Amalga oshirilayotgan subloyihaning ekologik xavfsizligi va atrof-muhitga ta'sirini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun barcha zarur chora-tadbirlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

LAOG atrof-muhit muhofazasi bo'yicha mutaxassis mahalliy hokimliklar va Jizzax viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda qurilish bosqichida ekologik chora-tadbirlarga rioya qilinishini kuzatib boradi.

#### 4. QURILISH PAYTIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY TA'SIRLAR VA ZARUR YUMSHATUVCHI CHORA-TADBIRLAR

1-Jadval

Faoliyat	Parametr	YUMSHATISH CHORALARI NAZORAT RO'YXATI
Umumiy Shartlar	Xabarnoma va ishchi xavfsizligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>(a) Mahalliy qurilish va atrof-muhit bo'yicha inspektorlari va jamoalar kelgusida bo'ladigan faoliyatdan xabardor qilinadi</li> <li>(b) Jamoat ommaviy axborot vositalarida tegishli xabar orqali ishlar xabardor qilinadi va / yoki ommaviy saytlar da (ishlari sayt, shu jumladan,)</li> <li>(c) Qurilish va/yoki qayta qurilish uchun barcha qonuniy zaruriy ruxsatnomalar olingan</li> <li>(d) Pudratchi (quruvchi) barcha ishlar xavfsiz va intizomli tarzda amalga oshirilishiga hamda aholi va atrof -muhitga ta'sirini minimallashtirish uchun rasmiy ravishda rozi bo'ladi.</li> <li>(e) Ishchilarning shaxsiy himoya vositalari xalqaro amaliyotga mos keladi (har doim qattiq kiyimlar, kerak bo'lganda niqob va himoya ko'zoynaklari va xavfsizlik etiklari).</li> <li>(f) Qurilish hududi tegishli belgilar bilan belgilash, ishchilar asosiy qoidalarga rioya qilishlari to'g'risida xabardor qiladi.</li> <li>(g) Qurilish tarkibida asbest mavjud materiallardan foydalanmang</li> </ul>
A. umumiy qayta qurish va / yoki qurilish faoliyati	Atmosfera havosi Sifati	<ul style="list-style-type: none"> <li>(a) Qazish paytida (agar qazish) changni nazorat qilish choralari qo'llaniladi, masalan, erni purkash va namlash orqali suv sepiladi</li> <li>(b) Qurilish / buzishda hosil bulgan qoldiqlarni, qazilgan tuproq va agregatlari maxsus hududda saqlanadi, changni kamaytirish maqsadida suv sepib turish lozim</li> <li>(c) Pnevmatik burg'ulash yoki qoplamali va poydevorli buzish vaqtida changni suv bilab purkash orqali bostiriladi</li> <li>(d) Atrofdagi muhit changni kamaytirish uchun tuproq va qoldiqlardan tozalamadi</li> <li>(e) Qurilish hududidan qurilish / chiqindi materiallarining yoqish mumkin emas</li> <li>(f) Barcha texnikalar tegishli qoidalarga rioya qiladi va maxsus hududda saqlanadi va xizmat qiladi va qurilish hududidan tashqarida ishlatilamaydi</li> </ul>
	Shovqin	<ul style="list-style-type: none"> <li>a) Qurilish shovqini ruxsatnomada kelishilgan vaqt bilan cheklanadi.</li> <li>b) Ish paytida generatorlar, havo kompressorlari va boshqa uskunalarining ishlash davomida qopqog'ini yopilishi va asbob - uskunalar turar joylardan iloji boricha uzoqroqda joylashtirilishi kerak.</li> </ul>
